

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY
YONDASHUVLARI

Umronov Sardorbek Sodirbek o'g'li

Oriental universiteti Ta'lim menejmenti

yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvlari hamda nazariyalari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, baholash, yondashuv, nazariya, ta'lim-tarbiya.

Mamlakatimiz ta'lim tizimining maqsadi ta'lim standarti asosida ijtimoiy-iktisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda ta'limni tashkil etish va ma'naviy barkamol, intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Oliy ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish asosiy maqsad qilib belgilangan. Ta'limni modernizatsiya qilishda muassasa darajasini uning sifati belgilab beradi va muassasa nufuzini oshirish uning sifatini aniqlash, baholash va ta'minlashda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan amalga oshiriladi. Ta'limni zamonaviylashtirish o'quvchilarni nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga, balki shaxsiyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish zarurligini ham taqozo etadi. Ta'lim muassasaning rivojlanganlik darajasini uning sifati belgilab berishini inobatga olgan holda, ta'lim sifatini oshirish uchun birinchi navbatda, sifatli ta'lim berishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash muhimdir.

Izlanishlar davomida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajalari aniqlanib, sifatni oshirishda yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etish va undan kutilayotgan natijalar bashorat qilindi, uni amalga oshirish uchun barcha turdagi resurslarni jalb qilgan holda, innovatsion mexanizm va tuzilmalar ishlab chikish muxim vazifalardan sanaladi.

Sifat, birinchi navbatda, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun⁴¹, o'quv dasturlari va ijtimoiy buyurtma iste'molchilarining talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Chunki har ikkisining ham to'liq ta'minlanishi ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan qaralsa, sifat hisoblanadi. Ta'lim jarayonida, uni aniqlash va baholashda faol ishtirok etadigan yuqoridagi tushuncha, mezon va ko'rsatkichlarning barchasi ta'lim xizmatlarida turli harakatlar bilan o'zaro hamkorlikda olib boriladi va ta'lim jarayonining tub o'zgarishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

⁴¹ <https://lex.uz/docs/-5013007>

Ta'limdagi o'zgarishlarni yaxshiroq tushunish uchun, avvalo, uning an'anaviy tizimdagi mavjud asosiy ko'rinishlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa, zamonaviy ta'lim paradigmasini amalga oshirishda bir qator to'siqlar mavjudligini aniqlashimizga imkon berdi.

Insonda qadriyatlarga qarshi munosabatda namoyon bo'ladigan ta'limdagi beparvolik – o'quv jarayoni ishtirokchilari tomonidan ta'limning ma'nosi to'g'risida xabardorlik darajasining pasayishiga olib keladi, ularni tanlash huquqidan mahrum qiladi hamda o'quvchining shaxs sifatidagi darajasini pasaytirib, unda befarqlik, qaramlikning shakllanishiga turtki beradi.

Keyingi o'rindagi to'siq sifatida avtoritarizm, yani obekt va sub'ekt munosabatlarini mutloqlashtirish ta'limning "bajarish", "o'rganish", "takrorlash" kabi tushunchalar ustunlik qiladigan monologik usuli bilan maktablarda keskinlik, tashvish va qo'rquv muhitini keltirib chikaradi.

Axborotlashtirish, bunda uning ijobiy tomoni bilan bir qatorda, ta'lim mazmuni fakat yod olishga mo'ljallangan tomonining ta'sirini ham keltirib o'tish lozim. Uning asosida faqat axborot yotadigan, ta'lim bilim, ko'nikmalari diqqat markazida bo'lgan axborot mazmuni o'quv jarayonining rivojlanish yo'nalishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan ham tavsiflanadi.⁴²

Bugungi kunda ta'lim beruvchi "o'rgatish"dan ko'ra "o'rganishga o'rgatish"ga katta ahamiyat berishi lozim. Milliy pedagogikamiz yaqin yillargacha o'quvchilarga insoniyat tomonidan shu paytga qadar egallangan mavjud bilimlarni o'rgatishni eng maqbul yo'l sifatida qarab keldi. Bunda mavjud bilimlar o'quvchi ong va tafakkuriga tayyor holda singdiriladi. Bu jarayonda bilimlar adabiyotlarda tayyor holda mavjud bo'ladi va buni o'zlashtirish o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham qanoatlanarli hisoblanadi. Ammo bu o'quvchilarda masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bu turdagi pedagogikaning bosh maqsadi sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda o'quvchining qanchalik ko'p bilimni yodda saqlaganiga qarab uning bilimi haqida xulosa chiqariladi. Bu, to'g'ri, ammo bilim olish jarayoni ikki bosqichdan iboratligini, birinchi bosqich bilimlarni egallash, ikkinchi bosqich undan xulosalar chiqarish ekanligini hisobga olsak, bu usul tugallanmagan metodika sifatida o'zini oqlamasligi oydinlashadi. Bilim bilim uchun xizmat qilmas ekan, uning oddiy informatsiyadan farki qolmaydi, ya'ni mavjud bilimlar yangi bilimlarni kashf etish uchun poydevor sifatida xizmat qilmasa, bu jarayonda zanjirli reaksiya hodisasi kuzatilmasa, fan va ishlab chiqarishda kutilgandek rivojlanish va taraqqiyot kuzatilmaydi. Buning uchun o'quvchilar masalaning mohiyatini anglashi, sabab va oqibatlarni tushunib yetishi va xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'qitish va tarbiyalashning sun'iy bo'linishi, bunda asosiy va qo'shimcha ta'limni ajratish o'quvchilarning bilimlari va dunyoqarashining parchalanishi, ortikcha yuklanishi, ruhan va jismonan og'irlashishiga olib kelishi bilan tavsiflanadi.

⁴² Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi / darslik —G.: Fan va texnologiya, 2008.B.

Ta'limni soddalashtirish. O'qitish va tarbiyalashga yuzaki yondashish, mavzuni ijtimoiy-madaniy hodisadan qoidalar va dalillar to'plamiga va ta'lim-tarbiya jarayonini intizomiy harakatlarga aylantiradi, bu esa ta'lim olishning raqobatbardoshligini kamaytiradi.

Ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi eng yuqori darajadagi omil bu ta'lim mazmuni bo'lib, bunda davlat ta'lim standartlari, o'quv dastur, o'quv reja kabilarning ta'siri nazarda tutilgan. Ta'lim sifatini oshirishda boshqaruv jarayonlari asosiy kuch hisoblanadi, tadqiqotchi olim S.Khedekar ta'lim muassasasida boshqaruv jarayoni bu ta'lim maqsadlariga erishish uchun inson va moddiy resurslardan foydalangan holda, ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarish va nazorat etish jarayonidir⁴³, deya ta'kidlab o'tgan.

Xorijlik olim O.Homeriki tomonidan taqdim qilingan ta'limda boshqaruv jarayonini to'liq aks ettiruvchi ko'p o'lchovli konseptual model ⁴⁴orqali ta'lim menejmentining ta'lim sifatiga ta'sirini ko'rsatib o'tamiz.

Birinchi yo'nalish - ma'muriy xo'jalik va moliyaviy faoliyat, bunda ta'lim muassasasining ma'muriy-xo'jalik va moliyaviy faoliyatining ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Demak, boshqaruvning bu yo'nalishi ta'lim sifatini oshirishda o'quv, laboratoriya xonalari, sport maydonchalari, inventarlar, oshxona, binoning ichimlik suvi, issiqlik manbai bilan ta'minlanganligi kabi kator omillar bilan sifatga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ikkinchi yo'nalish - o'quv-uslubiy ishlar hamda muassasada olib borilayotgan amaliy ahamiyatga ega loyihalar, tajribalar, bunda fanlar bo'yicha ehtiyojga muvofiq darsliklar, elektron resurslar, o'quv jarayonining metodik va didaktik ta'minoti, pedatoglarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash, innovatsion yondashuvlar asosidagi loyihalar, dasturlar, pedagogik amaliyot va tajriba ishlarini e'tiborga olish mumkin.

Uchinchi yo'nalish - kadrlar bilan ishlash, bunda umumiy va pedagogik xodimlarni kasbiy kompetentlik darajasini saralash va baholash tizimi nazarda tutilgan. Pedagogik mahorat va kasbiy faoliyatdagi kompetensiyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKTlar bo'yicha bilimlarni rivojlantirish va baholash, oliy o'quv yurti bitiruvchilarini ishga qabul qilishda yangi zamonaviy mezonlar, ta'lim jarayonidagi subektlar faoliyatining tezkor, samarali mexanizmlarini ishlab chiqish orqali boshqaruv sifat kafolatini mustahkamlashga erishish mumkin.

To'rtinchi yo'nalish – jamoadagi psixologik muhitni mustahkamlash, optimal ijtimoiy-psixologik sharoitni yaratishdan iborat, bunda ta'lim jarayoni barcha sub'ektlarining o'zaro umumiy maksaddagi munosabati, yosh xususiyatlari, iqtidor toifalarini inobatga olgan holda, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish, rag'batlantirish, xamkorlikdagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash orqali boshqaruv ta'lim sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

⁴³ Сандхя Кхедкар. Едусатионал Манагмент, ТССЕР ИИИ. 1 Фунстион оф Едусатион Манагмант. 2007

⁴⁴ Красиков А.С. Оценка качества труда руководителя сферы образования. Ученое пособие. Российская академия образования. Вологодский Институт развития образования. - Санкт-Петербург, 2006

Ta'lim menejmenti bilan bir katorida sifat menejmenti ham unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmui bo'lib, o'quv jarayoni sub'ektlarning o'z-o'zini bilish, rivojlantirish, nazorat qilish, baholash kabi xususiyatlari orkali ta'sir etish darajalari tahlil qilinadi. Sifat menejmentida sub'ekt vazifalarini maqsadli shakllantirish muhim, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ham sifat boshqaruvini takomillashtirishla o'z hissalari bilan ishtirok etadi.

Tokio universiteti professori, sifat menejmenti mutaxassisi Kaoru Isikava tomonidan muammo va ta'sirlarni aniqlash, sabablarini tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish maqsadida taqdim qilingan Ishikava usuli diagrammasida 5Mga asoslanilgan, ya'ni, man-inson omili, machines-jihozlar, materials-materiallar, methods-usullar hamda measurements-o'lchovlar bilan bog'lik omillar asos qilib olingan⁴⁵

Ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni xalqaro Ishikava usuli orqali ifolash mazkur omillarni tartiblashgan holda aniq ifodalash, sabablarni tahlil qilish va mavjud muammolarni tezkor bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ta'lim menejmenti sifatni baholash va ta'minlashda muassasa faoliyatini samarali yo'lga ko'yishning yuqori ko'rsatkichlariga erishishi, unga to'sqinlik kiluvchi muammolarni o'z vaktida aniklab, bartaraf etish choralari ega bo'lishi kerak. Vaholanki, umumta'lim muassasalari amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlarni yo'lga qo'yishda xali xanuz tashkiliy-huquqiy mexanizmlarga ehtiyoj sezilmoqda. Ta'lim soxasidagi yuqori vakillik tashkilotlari ham muassasa faoliyatini tahlil qilishla o'ziga xos mezon va ko'rsatkichlar orqali emas, faqatgina statistik ma'lumotlarni to'plash orkali amalga oshirilmoqda. Bu ta'lim muassasasining xolis bo'lmagan bahosini beradi va uning ertangi natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ta'lim muassasasi sifatini belgilab berishda iste'molchilar nuqtai nazaridan e'tibor qaratish sifatga ob'ektiv baho berilishini ta'minlaydi. Shu o'rinda sifatga baho beruvchi iste'molchilarni ham ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchisi, muassasa xizmatlariga ehtiyoji bor o'quvchi, ikkinchisi esa, muassasa ishlab chiqaradigan ijtimoiy buyurtma iste'molchisi-barcha tashkilotlar, kasbiy va oliy o'quv yurtlari va b.

O'quvchi nazarida ta'lim muassasasining bahosi ta'lim beruvchiga berilgan bilim, ko'nikma va malakalar asosidagi ehtiyojlarni ta'minlash darajasi bilan belgilanadi. Keyingi iste'molchilar, kasbiy va oliy o'quv yurtlari xamda boshqa tashkilotlar nazarida esa, har bir o'quvchi iste'molchining idoraviy va individual ehtiyojlariga javob berish kobiliyatlariga ega bo'lishi kerak deb hisoblaydi va bu iste'molchilar muassasa sifatini shu asosda baholaydi. Demak, ta'lim sifatiga erishishda bundan manfaatdor bo'lgan barcha tomonlar birgalikda o'zaro faoliyat olib borishi maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan ta'lim sifati ta'lim turlarining barcha sohalariga fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlaydigan innovatsion-integratsion tuzilmani tatbiq etishni taqozo etadi.

Ta'lim sifatiga bevosita ta'siri bilan birga bilvosita ta'sir qiluvchi omillar – mamlakat iqtisodiyoti, mintaqaning ijtimoiy-madaniy va siyosiy hayoti, fan yutuqlari va boshqalar ham

⁴⁵ Исикава К. Японские методы управления качеством. М.: Экономика, 1988

o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qitish sifati – davlat, jamiyat va shaxsning ta'lim ehtiyojlarini qondira oladigan, zamonaviy talablarga javob beradigan, kombinatsiyalashgan pedagogik nazariya sifatida qaraladi.⁴⁶

Yuqorida aytib o'tilgan ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillar va to'siqlarni bartaraf etish uchun bugungi kunda mamlakat ta'lim tizimining asosiy vazifasini belgilab olish muhim. Bu shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb va istiqbolli ehtiyojlarini ta'minlash orqali ta'limning zamonaviy sifatini oshirish hamda ta'lim jarayonini rivojlantirish va ta'lim sifatini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi faoliyatida tegishli darajadagi zarur pedagogik sharoitlar ta'minlansa, muassasalarda o'quvchilarni o'qitish sifati yaxshilanishi va yuqori natijalar kafolatlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi / darslik —'G.: Fan va texnologiya, 2008.B.
2. Сандхя Кхедекар. Едусатионал Манагмент, ТССЕР ИИИ. 1 Фунстион оф Едусатион Манагмант. 2007
3. Красиков А.С. Оценка качества труда руководителя сферы образования. Ученое пособие. Российская академия образования. Вологодский Институт развития образования. - Санкт-Петербург, 2006
4. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Turon Iqbol, 2006. – 592 b.
5. Xalimov M., Jabborova Y., Turikova L., Daminova Sh., Rejapova D., Saidqulov S., Jo'rayev A. Inson resurslarini boshqarish (HR). Toshkent. "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2025. – 128 b.

⁴⁶ П. Третяков и др. "Регион: управление образованием по результатам" - теория и практика, М., 2001 г.